

**PREDLOG VA PREDLOGLI IBORALAR XUSUSIDA. (INGLIZ VA ITALYAN
TILLARI MISOLIDA)**

Maxsumov Rustam

Aymatova Mastona

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti.

maxsumovrustam4@gmail.com

Annotatsiya: *Ingliz va Italyan tillari ham boshqa tillar kabi predlog va predlogli iboralarga boy til hisoblanadi. Shuning uchun ularni turli tomondan tadqiq etish va o'ziga xos jihatarini o'rganish lug'at boyligini oshirish hamda xorijiy bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Ushbu maqolada Ingliz va Italyan tillaridagi predlog va predlogli iboralar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ibora, predlog, ko'chma ma'no, tarjima, ekvivalent.*

**PREPOSITIONS AND PREPOSITIONAL IDIOMS.
(ON THE EXAMPLES OF ENGLISH AND ITALIAN LANGUAGES).**

MakhsuMOV Rustam¹

, Aymatova Mastona.²

Denau institute of entrepreneurship and pedagogy.

maxsumovrustam4@gmail.com

Annotation: *The prepositions and prepositional idioms is one a important research subjects in each language, also in English and in Italian it plays important role. Especially, it is important to research and investigate on peculiarities of idioms. This article aimed at investigating some features of prepositions and prepositional idioms in English and in Italian language. Theoretical data about prepositions and prepositional idioms are discussed and analyzed with reasonable examples.*

Key words: *preposition, idiom, prepositional idioms, figurative meaning, translation.*

Bir qarashda ingliz tilidagi predloglardan foydalanish juda oddiy vazifa kabi ko'rinadi. Agar ulardan foydalanish qoidalarini eslab qolsangiz, bu juda oson. Turli tillar predloglardan turlicha foydalanadi. Predlog – bu yordamchi gap bo'lagi xisoblanib, gapda otlarning yoki olmoshlarning boshqa gap bo'laklari bilan bo'lgan munosabatini bildiradi. Ingliz tilida kelishiklar oz bo'lgani sababli predloglar gapda alohida muxim o'rin tutadi. Predloglar – gap bo'laklari o'rtasida aloqa o'rnatuvchi vositalardir. Predloglar barcha yordamchi so'zlar singari formal morfologik belgilarga emas, ularning akasariyati qadimgi ingliz so'zlari o'zagidan kelib chiqqan predloglardir. Predloglar yordamchi so'zlar bo'lib, otga sintaktik bog'liqligini ifodalaydi, yoki ot, olmoshga soz

birikmasidagi boshqa soʻzlardan ajratish uchun xizmat qiladi. Predlogning leksik birliklari borligini yordamchi soʻzlarnikidek inkor etilmasligiga qaramasdan, predloglarni maʼnosini aniqlash, faqatgina funksional belgiga asoslanadi.

Predloglarning turlari:

- Vaqtni ifodalovchi predloglari
- Yoʻnalish predloglari
- Joy va holat predloglari
- -ing qoʻshimchasini qoʻshish orqali yasalgan soʻz predloglari
- Predlogli birikmalar.
- Qoʻshma predloglar

Kategoriyalar	Predloglar
Vaqtni ifodalovchi	at-da, in-ichida, on-da, during-davomida, since-buyon, by-orqali, until-gacha, before-oldin, after-keyin, past-avval
Joy	at-da, in-ichida, on-ustida, by/near/close to-yaqin, next-keyingi to/beside-yonida, between-orasida, behind-orqasida, in front of-oldida, above/over-yuqorida, below/under-tagida
Yoʻnalish/harakat	to-ga, from-dan, over-ustiga, under-tagid, along-boʻylab, around-atrofida, across-tomon, through-orqali, into-ichiga, out of-tashqariga, toward(s)-tarafga, away from-dan uzoqqa, onto-ustiga, off- uzoqlashish, up-yuqoriga, down-pastga
Sabab yoki maqsad	for-uchun, through-orqali, because of-sababli, on account of-tufayli, from-dan
Birgalik	with-bilan

Italyan grammatikasida predlog alohida soʻz turkumi hisoblanib, gapda soʻzlar oʻrtasidagi sintaktik aloqani ifodalashda va aniqlashda ishlatiladi. Predlog har doim ot, olmosh yoki toʻliqsiz (infinitiv) feʼl oldida keladi va ikkinchi darajali gap boʻlaklarini yasashda ishtirok etadi.

Predloglarning ikki turi mavjud boʻlib: **oddiy** (di, a, da, in, con, su, per, tra, fra) va aniq artikl bilan birikib kelgan **murakkab** predloglarga boʻlinadi (con, per, tra/fra predloglaridan tashqari). Murakkab - artikllashgan predloglar artiklning rodiga va soniga moslashib keladi. Quyida artikllashgan predloglar jadvali keltiriladi:

	<i>il</i>	<i>lo</i>	<i>la</i>	<i>l'</i>	<i>i</i>	<i>gli</i>	<i>le</i>
di	del	dello	della	dell'	dei	degli	delle
a	al	allo	alla	all'	ai	agli	alle
da	dal	dallo	dalla	dall'	dai	dagli	dalle

in	nel	nello	nella	nell'	nei	negli	nelle
con	col	collo	colla	con l'	coi	cogli	colle
su	sul	sullo	sulla	sull'	sui	sugli	sulle

Italyan tilidagi predloglar ko'p jihatdan o'zbek tilidagi ko'makchilarga to'g'ri keladi, biroq predloglarni ko'makchi deb atay olmaymiz. Predloglar **sof** (proprie) predloglarga (di, a, da, in, con, su, per, tra, fra va artiklashgan predloglar) hamda boshqa so'z turkumlaridan hosil qilingan, predlog sifatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan **vazifadosh** (improprie) predloglarga bo'linadi. Eng ko'p ishlatiladigan vazifadosh predloglar (preposizioni improprie) quyidagilar:

Verso (tomon)	Circa (qariyb)	Intorno (atrofida)
Lungo (bo'ylab, osha)	Contro (qarshi)	Presso (yaqinida)
Durante (davomida)	Davanti (oldida)	Prima (oldin)
Tranne (-dan tashqari)	Dentro (ichakari)	Senza (tashqari, -siz)
Eccetto (-dan tashqari, -siz)	Dopo (keyin)	Sopra (ustida)
Salvo (-dan tashqari, agar)	Fuori (tashqari)	Sotto (ostida)

Ba'zi predloglar ravish bilan birgalikda ishlatilib, predlog vazifasini bajaruvchi birikma (locuzioni prepositive) bo'lib keladi:

Accanto a (yaqinida)	Davanti a (oldida)
Vicino a (-ning yaqinida)	Invece di (o'rniga)
Di fronte a (qarshisida)	Prima di (-dan oldin)
Fino a (-gacha)	Dopo di (-dan keyin)
Lontano da (-dan uzoqda)	Insieme con (birga)

Italyan tilida predloglar **è necessario, è bello, è opportune, è utile, è inutile** va boshqa so'z birikmalari hamda **amare, desiderare, dovere, lasciare, piacere, potere, preferire, sapere, volere** va boshqa fe'llar bilan ishlatilmaydi.

Masalan: È necessario chiedere informazioni - ma'lumotlarni so'rash zarur

È bello avere degli amici generosi - ochiqqo'l do'stlaring bo'lsa yaxshi

Preferisco passare il pomeriggio al parco - kechki paytni istirohat bog'ida o'tkazishni yoqtiraman.

Bundan tashqari Predloglar bilan keladigan iboralar ham mavjud bo'lib, ulardan ayrimlarini quyidagi misollar orqali ko'rib chiqamiz:

- **at any rate** – har qanday holatda /nima sodir bo'lishidan yoki sodir bo'lishidan qat'i nazar.

- **at one's disposal** – birovning ixtiyorida .

- **at first** – boshida.

- **at last** – nihoyat, biroz kechikishdan keyin (uzoq kutishdan keyin charchoq hissini bildiradi).

- **behind the scenes** - sahna ortida/voqealarga yashirincha ta'sir o'tkazish; ko'rinmasdan.

- **by accident** – tasodifan/ataylab emas.
- **by heart** – yoddan/xotiradan.
- **by mistake** – xato bilan/tasodifan.
- **for one thing** – bitta sababga ko'ra (bir nechta sababdan).
- **for sale** – sotish uchun/sotish uchun mo'ljallangan.
- **for now or for the time being** – hozir yoki hozircha/boshqa kelishuv/qaror qabul qilinmaguncha.
- **for a while** – ma'lum muddatga/ma'lum muddatga.
- **for sure** – aniq/albatta.

Italyan tilida ham predloglar bilan keladigan iboralar mavjud bo'lib, ularni quyidagi misollar orqali ko'rib chiqamiz:

- **A caro prezzo** - Qimmat narxda
- **A dire il vero** - Rostini gapirganda
- **A dirla schietta** - Ochiq,oydin gapirganda
- **A due mani** - Sahiy
- **A mano a mano** - Sekin-sekin, bosqichma-bosqich.
- **A nessuno e nascosto** - Hech kimga sir emas (hammaga ma'lum...)
- **Di buon'ora** - Barvaqt⁴⁷;
- **In gamba** - Oyoqqa turgan, o'zini eplagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2000-2005.
2. Oltiev T., Xudoyqulov B. Italyan tilidagi iboralarning tarjimasi" lug'ati. – 2021.
3. Xudoyqulov B. A REVIEW ON THE STUDY OF PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS IN ITALIAN LANGUAGE //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – T. 33. – C. 212-214.
4. initalia.uz/sahifalar/predlog.html

⁴⁷ Oltiev T., Xudoyqulov B. Italyan tilidagi iboralarning tarjimasi" lug'ati. – 2021.